

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



AGROLOGISTIKA VA BIZNES  
FAKULTETI

AGROLOGISTIKA kafedrasи

5230400 -MARKETING (TARMOQLAR VA SOXALAR BO'YICHA)  
TA'LIM YO'NALISHINING TALABALARI UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMA

TOSHKENT – 2021

## K I R I Sh

Tuzuvchi: **Z.B.Xalmuxamedova** – “Agrologistika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: **A.U.Muratov** – Qishloq xo‘jaligi vazirligi, bosh mutaxassis, dotsent, iqtisod fanlari nomzodi  
**Z.T.Siddiqov** – Tosh DAU “Agrobiznes va investitsion faoliyat” kafedrasi dotsenti

” kafedrasining 2020 yil 24 avgustdagи 1 - undi.

” fakulteti uslubiy komissiyasining 2020 ‘rib chiqilib tasdiqlandi.

vlat agrar universiteti O‘quv-uslubiy sonli bayoni bilan tasdiqlangan.  
Alobozor qo‘shuvchisi

ИНВ №

C 2843

ТошибАУ ТаджИАУ

Mamlakatimizda agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning chuqurashuvi asosida qishloq xo‘jaligida tub tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoxda. Bu sohada Respublikamiz bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish, korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy erkinligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlashda sohaga malakali kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida “Ettinchidan qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishda ilm-fan hayot talablaridan orqada qolayotgani jiddiy muammolardan biridir” deb ta’kidlab o’tganlar.

Mamlakatni bugungi kunda demokratik, evalyutsion yo‘ldan rivojlanishi eng samarali yo‘l bo‘lib, o‘zining samarali natijalarini bermoqda. Ishlab chiqarishni malakali kadrlar bilan ta’minlashda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni** bilan tasdiqlangan iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasida keltirilganidek, “Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda aholini ish bilan bandligini ta’minlash, bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, qishloq xo‘jaligi sohasiga investitsiyalarni kiritish, modernizatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish oldimizdagи asosiy

vazifalardan biridir. Qishloq xo'jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulkchilik va tadbirkorlik shakllarini barpo etishning zarurligi, sifatli moddiy- texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, investitsiyalar bo'yicha davlatning siyosati, qishloq xo'jaligi korxonalarining daromadlarini ko'paytirish yo'llarini asoslab berishda malakali iqtisodchilar tayyorlash zarurdir.

Shu bilan bir qatorda, ASM korxonalari mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo'yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun chuqur bilimga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy mustaqilligi va uni rivojlanishi ko'p jixatdan hozirgi kun talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni, shu jumladan malakali marketologlarni qay darajada tayyorlanishiga bog'liqdir. Marketolog mutaxassislar bozor munosabatlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari, zamonaviy bozorda talab va taklifni o'rganish va marketing tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonlarining mohiyatini to'la tushunib etishlari va yangi sharoitda mustaqil fikrlay olishlari lozim.

Bitiruv malakaviy ishi talaba to'rt yil davomida qay darajada nazariy bilimlarini malakaviy amaliyotlarda shakllantirganligini ma'lum bir mavzu doirasida ko'rsatadigan yakuniy bosqich, nazariy va amaliy ishdir.

Malakali marketologlarni tayyorlashda bitiruv malakaviy ishi alohida ahamiyaga egadir. Bitiruv malakaviy ishi talabani o'qish jarayonidagi pirovard mustaqil ishi hisoblanib, uni yosh kadrlarni etuk marketolog mutaxassis sifatida shakllanishidagi ahamiyati beqiyos kattadir.

Uslubiy ko'rsatmalarda bitiruv malakaviy ishlarining maqsadi va vazifalari bayon etilgan bo'lib unda mavzuni tanlash, tayyorlash va himoya qilish bo'yicha maslaxatlar berilgan. Uslubiy ko'rsatmalarining ilova qismida bitiruv malakaviy ishining mavzusini tanlash, uni tayyorlash va himoya qilish jarayonida talaba uchun kerak bo'ladigan namunalar keltirilgan.

## 1. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TAYYORLASHNING

### MAQSADI VA VAZIFALARI

Bitiruv malakaviy ishni bajarish oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishni bajarishning maqsadi:

- talabalarni nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish, ularda o'qish jarayonida olgan bilimlarini muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish va iqtisodiy vazifalarni hal etishda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar xosil qilish;

- mustaqil fikrlash va ishlash, hal etilayotgan masalaning qo'yilishi jarayonidan boshlab uni, to'la nioxasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilish mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

- bozor munosabatlari sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishi talabani mustaqil o'zi bajaradigan ishi hisoblanib uni tayyorlash jarayonida talaba oldiga quyidagi talablar qo'yildi:

1. Talaba umummutaxassislik va mutaxassislik fanlari bo'yicha o'qish jarayonida olgan bilimlarini bitiruv malkaviy ishni tayyorlashda mustaqil va samarali qo'llay olishi lozim.

2. Talaba agrar sohani isloh qilish bo'yicha Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarni, Prezident Farmon va qarorlarini, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarni yaxshi bilishi va ulardan bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda samarali foydalana olishi kerak.

3. Talaba bitiruv malakaviy ishi mavzusini va ob'ektini to'g'ri tanlay bilishi, mavzuga oid ma'lumotlarni to'plashi va tahlil qila olishi, o'rganilayotgan xo'jalikni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-muloxazarlarni, takliflarni, xulosalarni va tavsiyalarni bera olishi kerak.

## **2. BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINING MAVZUSI**

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalarning istiqbolli rivojlanishini to‘g‘ri aks ettirishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ixtisoslik kafedrasi tomonidan tayyorlanib, fakulitet kengashida ko‘rib chiqilib tasdiqlanadi. Mavzular uch yilda bir marta qayta tayyorlanadi.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusini talaba tanlaganligi, 3-kurs yozgi semestrida kechi bilan esa bitiruv kursining boshida kafedraning taqdimnomasi bo‘yicha rektorning buyrug‘i rasmiylashtirilishi lozim.

Talabalarga ularni reyting ballarini kamayish tartibida malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt mablag‘ini to‘lovchi buyurtmachi asoslangan holda malakaviy ishning mavzusi bo‘yicha o‘z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Rahbar bitiruv malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha (jumladan, malakaviy amaliyat o‘tkazish davrida) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o‘quv yurtining o‘quv-uslubiy boshqarmasi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiyasi komissiyasiga taqdim etiladi.

## **3. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHGA RAHBARLIK QILISH**

Bitiruv malakaviy ishlariga raxbarlik oliy o‘quv yurtining ta‘lim yo‘nalishiga mos keladigan ixtisoslik kafedrasining professor va dotsentlari yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining hamda soha bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining rahbari:

- bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha tapshiriqni tayyorlashda maslahatlar beradi;
- talaba tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan jadvallarni ko‘rib chiqadi va keraklilarini tanlashda ko‘mak beradi;

- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan asosiy adabiyotlarni va mavzu bo‘yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;

- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida talabalarga muntazam maslahatlar beradi;

- bitiruv malakaviy ishning bajarilishi jarayonini nazorat etadi;

- talaba tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishning sifatiga va plagiat emaslilikiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishi berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishning har bir bo‘limi asoslangan holda qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishda talaba tomonidan ilgari bajarilgan mustaqil ishlarining natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma’ruzalardan, maqolalardan, kurs ishlaridan ularni nomlari ko‘rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanilishi mumkin.

Tushuntirish qismi bitiruv malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo‘srimcha axborot yozilgan disketlar ilova etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so‘z hajmida belgilanadi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan bitiruv malakaviy ishi chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishning o‘zbek tili varianti va chet tilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima qilinadi.

#### **4. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAJARILISHI**

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash talaba tomonidan tuzilib, uning ilmiy rahbari tomonidan ma'qullagan mundarija asosida amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishining mundarijasi o'z ichiga kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini oladi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi va xozirgi kundagi ahamiyati asoslanib, mavzuning maqsadi aniqlanadi. So'ngra bitiruv malakaviy ishining tarkibi aks ettiriladi. (qo'lyozma hajmida 3-5 bet).

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismi odatda 4-5 ta paragrafdan iborat bo'lib, ularga quyidagi larni kiritish mumkin.

**1-paragraf** – nazariy qismidan iborat bo'lib, unda mavzuning moxiyati va zarurligi asoslanadi. Bu qismda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunchilik xujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan va mavzuga oid bo'lgan maxsus adabiyotlardan keng foydalanish lozim. Xulosa qilib aytganda bu qismda mavzuning keyingi boblarida o'r ganiladigan masalalarni nazariy asoslari yaratiladi. (10-15 bet)

**2-paragraf** – ushbu qismida xo'jalikni tabiiy-iqtisodiy sharoiti, joylashgan o'mi, ixtisoslashuvi darajasi, uni o'r ganilayotgan masalalar bo'yicha xozirgi kundagi holati o'r ganiladi (15-20 bet)

**3-paragraf** – bitiruv malakaviy ishining bu qismida o'r ganilayotgan xo'jalik belgilangan maqsad asosida taxlil qilinib, uning xozirgi holati aniqlanadi. O'r ganilayotgan xo'jalikning iqtisodiy faoliyati mavzuda belgilangan maqsad asosida o'r ganilib tahlil etiladi (12-15 bet)

**4-paragraf** – bitiruv malakaviy ishining bu qismida o'r ganilayotgan xo'jalikning iqtisodiy samaradorligi aniqlanib uning ko'rsatkichlari har tomonlama chuqur tahlil etiladi (12-15 bet)

**5-paragraf** – bitiruv malakaviy ishining bu qismida mavzuning pirovard maqsadi, ya'ni o'r ganilayotgan xo'jalikda boshqarishni takomillashtirish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi (10-12 bet)

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida barcha savollar bo'yicha o'r ganilgan masalalar yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar, fikr-mulohazalar va tavsiyalar umumlashtirilib, asoslangan holda tartib bilan yoziladi. (4-6 bet)

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismidan keyin jadvallar, rasm va chizmalar ko'rinishida mavzuga oid ilovalar berilishi mumkin bo'lib, ular ishning hajmiga qo'shilmaydi. Bitiruv malakaviy ishining umumiylajmiga ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kirmaydi. Bitiruv malakaviy ishi 210 x 270 mm oq qog'ozda imlo xatolsiz tushunarli va aniq qilib yoziladi. Bitiruv malakaviy ishi oq varaqning chap tomonidan 30 mm, o'ngdan 10 mm, yuqoridan 20 mm, va pastdan 25 mm joy qoldirilib, komp'yuterda tayyorlanadi. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismidan boshlab foydalanilgan adabiyotlarga hamma sahifalari arab raqami bilan tartib bo'yicha belgilanadi.

Kirish, savollar, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati yangi sahifadan boshlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishidagi jadvallar, rasm va chizmalar bir sahifada yaxlit qilib berilishi kerak. Ularning tartib qatorlari o'ng tomonga qo'yilib, pastdan nomlari ko'rsatiladi va shundan so'ng o'zi beriladi. Xar bir jadval, rasm yoki chizmadan keyin uning iqtisodiy tahlili beriladi.

Bitiruv malakaviy ishining oxirida, ya'ni adabiyotlar ro'yxatidan keyin uni yozib tugatilgan sanasi va bitiruvchining imzosi qo'yiladi. Bitiruv malakaviy ishi muqovalanib kitob shaklida tiktiladi. Bitiruv malakaviy ishi oliy o'quv yurtida bajariladi. Ayrim hollarda, bitiruv malakaviy ishi korxonalar, tashkilotlar, ilmiy markazlar va boshqa muassasalarda ham bajarilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabaning hisob berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Belgilagan muddatlarda talaba bitiruv malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilab boradi.

Talaba bitiruv malakaviy ishining muallifi sifatida ishning sifatiga, xulosa va takliflarning to'g'riligiga va uni topshiriqqa to'la mos kelishiga, bitiruv malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

## **5. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI HIMOYA QILISH**

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar bitiruv malakaviy ishi talab darajasida bajarganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z xulosasi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishining boshqa ijobiy tomonlari tafsiflanadi. Kafedrada bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi o'tkaziladi. Kafedra mudiri ko'rib chiqib, barcha talablar bajarilganda bitiruv malakaviy ishni dastlabki himoya qilishga ruhsat beradi va ijobiy baholansa DAKda himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qilinadi. Agar kafedra mudiri talabaning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi, himoyaga ruhsat berish yoki bitiruv malakaviy ishni qayta ishlash bo'yicha qaror qabul qilinadi. Dastlabki himoyadan o'tgan bitiruv malakaviy ishi taqrizga yuboriladi. Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste'mol qiluvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida oliy o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Ilmiy rahbarning xulosasi va taqrizlar kompyuterda yozilib berilgan sanalar ko'rsatiladi hamda holda ilmiy rahbar va taqrizchilar tomonidan imzolanadi. Bitiruv malakaviy ishi taqrizlar va rahbar xulosasi bilan birga DAK boshlanishiga ikki hafta qolganda kafedraga topshiriladi. Bitiruv malakaviy ishi ilmiy rahbar va taqrizchilar tomonidan qo'l qo'yilgandan keyin u kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Bitiruv ishi DAK boshlanishiga uch kun qolganda talab darajasida rasmiylashtirilgan holda taqrizlar, ilmiy rahbarning xulosasi va kafedra qarori bilan birga dekanatga topshiriladi. Fakultet dekani bitiruv malakaviy ishini unga berilgan rahbarning xulosasi, kafedra yig'ilishining qarori va taqrizlar bilan birgalikda himoya uchun DAKga yuboradi. Bitiruv malakaviy ishni himoyasi "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risi" dagi Nizom asosida belgilangan tartibda amalgalashuv bilan amalga oshiriladi.

Dekanat bitiruv ishlarini himoya qilish bo'yicha mahsus jadval tayyorlab, uni DAK boshlanishidan ikki kun oldin e'lonlar taxtasiga chiqarib qo'yadi.

DAKda bitiruv ishini himoya qilish uchun bitiruvchiga 15 minut vaqt beriladi. Bitiruvchi o'z ma'ruzasida bitiruv ishini mohiyatiga qisqacha to'xtlib, unda shakllantirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalarni bayon etadi. Ma'ruzada bitiruvchining fikr-mulohazalari, takliflari hamda tavsiyalari aniq, qisqa va asoslangan holda berilishi lozim. Bitiruvchi himoya jarayonida o'zi tayyorlagan jadvallardan, rasmlardan va chizmalardan kompyuter yordamida samarali foydalanadi. Ma'ruza tugagandan so'ng savol-javoblarga o'tiladi. So'ngra bitiruvchi taqrizlarda ko'rsatilgan savollarga va kamchiliklarga javob beradi. Himoya pirovardida xohlovchilar so'zga chiqib, bitiruv ishini himoyasi bo'yicha o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirishlari mumkin. SHundan so'ng DAK raisining taklifi bilan bitiruv ishini himoyasi tugaganligi e'lon kilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi, har xil sabablar bo'yicha malakaviy ishni boshqalarga topshirish zaruriyati tug'ilganda (tatbiq etish, tanlovlari va hokazo) ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

## **6. ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH TARTIBI**

1. Foydalilanigan adabiyotlar va boshqa manbalar adabiyotlar ro'yxatida tartib bilan beriladi.

2. Adabiyotlar va boshqa manbalar tartiblashtirilishi shart, masalan, alfavit bo'yicha yoki muhimlik darajalari bo'yicha. Agar muhimlik darajalari bo'yicha tartiblashtirilsa u holda birinchi navbatda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarga taalluqli manbalar, ikkinchi navbatda bevosita bitiruv ishi mavzusiga doir manbalar, uchinchi navbatda qo'shimcha adabiyotlar keltiriladi.

3. Foydalilanigan adabiyotlarning nomlari bitiruv ishining matnida (tekst ichida) ko'rsatib o'tiladi. Manbalarni bitiruv ishining matnida ko'rsatib o'tish qoidalari quyidagicha:

- agar biror adabiyotdan jumla yoki abzats aynan (o'zgartirilmadan) ko'chirib olinadigan bo'lsa, u qo'shtirnoq ichiga olinib, jumla tugagandan keyin qavs ichida adabiyotning (manbaning) foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidagi tartib nomeri ko'rsatiladi;

- agar biror adabiyot yoki mulohaza, taklif, tadbir, ifoda va xokazolarga murojaat qilinsa, ya'ni aynan ko'chirib olinmasa, bitiruv ishining manbaga murojaat qilingan joyida (avval yoki keyin) manbaning adabiyotlar ro'yhatidagi tartib nomeri qavs ichida keltiriladi (bunda murojaat qilingan matn qo'shtirnoq ichiga olinmaydi).

**Izox:** a) Adabiyotlar yoki manbalar deganda quyidagilar tushuniladi:

Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar;

Prezident Farmonlari va Qarorlari;

Vazirlar Maxkamasining qarorlari;

- o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma va h.k.), ilmiy adabiyotlar (monografiya, avtoreferat va boshqalar), gazeta va jurnallar, risolalar, radio va televideniyadagi chiqishlar, korxona va tashkilotlarning (bitiruv ishining ob'ekti) biznes rejalari, hisobotlari va boshqa xujjatlar.

b) Bitiruv malakaviy ishida foydalanilgan adabiyotlar va manbalargina ro'yxatga kiritilishi lozim. Ularning soni 20 tadan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

## 7. ILOVALARNI KELTIRISH TARTIBI

Bitiruv malakaviy ishining "ilovalar" qismi quyidagi hollarda o'rinni hisoblanadi:

- bitiruv malakaviy ishini yoritishda qo'shimcha ma'lumotlardan, jadvallardan, chizmalardan va boshqa me'yoriy hujjatlardan foydalanish zaruriyatini tug'ilganda;

- mavzuni yoritishda qo'llanilayotgan jadvallar, rasmlar va boshqa ma'lumotlar katta hajmda bo'lib, ular bitiruv malakaviy ishi hajmini me'yordan oshib ketishiiga sabab bo'lganda.

Ilovalar ulardan bitiruv malakaviy ishining matnida foydalanilishi bo'yicha tartib bilan belgilanadi. Ilovani tartib qatori varaqning yuqori qismining o'ng tarafiga qo'yiladi.

"Agrologistika" kafedrasining mudiri

ga

(ilmiy unvoni, i.sh.f.)

dan

(yo'nalish, kurs, gurux, talaba i.sh.f.)

A R I Z A

Menga \_\_\_\_\_ rahbarligida

(ilmiy raxbarning unvoni, f.i.sh.)

mavzusida

bitiruv malakaviy ishi yozishga ruhsat berishingizni so'rayman.

«\_\_\_» 202 \_\_\_ y.

(talabarning f.i.sh.)

imzo

**1-ilovaga namuna**

“Agrologistika” kafedrasi mudiri  
prof. M.X.Saidovga Marketing yo‘nalishi  
4 - kurs 19-guruh talabasi M.Yuldashevadan

**A R I Z A**

Menga dotsent A.Madaliev rahbarligida “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etkazib berishda transport logistikasi masalalari” mavzusida bitiruv malakaviy ishini tayyorlashga ruhsat berishingizni so‘rayman.

Marketing yo‘nalishi  
4-kurs 19-guruh talabasi

Yuldasheva M.

2020 yil 20 sentyabr.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI  
AGROLOGISTIKA VA BIZNES FAKUL‘TETI  
AGROLOGISTIKA KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

kafedra mudiri

«\_\_\_» 202 \_\_\_ y.

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ ga

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH UCHUN**

**T O P S H I R I Q**

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi universitet rektorining “\_\_\_” 202 \_\_\_ yildagi № \_\_\_ buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
2. Mavzu: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
3. Bitiruv malakaviy ishini tugatish vaqtি «\_\_\_» 202 \_\_\_ yil.
4. Bitiruv malakaviy ishining asosiy bo‘limlari \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Jadvallar ro‘yhati \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

- amaliyot o'tishda oliy ta'lim muassasasi bilan kelishilgan oy-kunlik ish jadvaliga amal qiladi;

- talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa xujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

- kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlashda yordam ko'rsatadi;

- hayot faoliyati havfsizligi bo'yicha majburiy ko'rsatmalar beradi, zarur bo'lgan hollarda talabalarni mehnatning havfsiz usullariga o'rgatadi va bu haqda hujjalashtiriladi;

- amaliyotchi talabalarning mazkur amaliyot ob'ektida joriy qilingan ichki mehnat tartib qoidalariga rivoja qilishlarini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

- yaqin atrofda joylashgan boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarda birgalikda tashriflar o'tkazadi;

- talabalarning amaliyot o'tish vaqtida mazkur amaliyot ob'ektining tegishli ishchilari uchun joriy qilingan shaxsiy himoya vositalari va mahsus ovqat, poyabzal, himoya kiyimlari bilan ta'minlaydi;

- shartnoma asosida talabalar yashashi uchun qulay sharoitli yotoqxonalar bilan ta'minlaydi. Zarur bo'lganda ularni joylashtirish uchun turar joylarni ijara oladi;

- zarur bo'lgan hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot ob'ekti rahbarining buyrug'i bilan jazo choralarini ko'riladi va bu haqda oliy ta'lim muassasasi rektoriga habar qiladi;

- amaliyotda talabalar bahtsiz hodisaga uchragan hollarda to'la javobgarlikni oladi.

Talaba amaliyot o'tashda:

- amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;
- amaliyot ob'ektining ichki mehnat tartib qoidalariga bo'y sunishi;
- mehnat muhofazasi, havfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganishi va qat'iy rivoja qilishi;

- bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxona ishchilari qatori javobgarlik olishi;

- kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

- amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shart.

### 3. Bitiruv ishi oldi amaliyoti natijalarini yakunlash

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot ob'ektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta'lim muassasasidan tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobot talabaning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot ob'ekti bo'limlarining qisqacha izohi (tsex, bo'lim, laboratoriya va boshqalar), ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining havfsizligi to'g'risidagi masalalar, amaliyot natijalari bo'yicha hulosa va takliflari o'z ichiga olishi lozim.

Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini oliy ta'lim muassasasi tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi.

Komissiya tarkibiga o'tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o'qituvchi, oliy ta'lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar va imkon bo'lsa, amaliyot ob'ektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Amaliyot natijasidagi bahosi talabaning kursidan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

Amaliyot yakuni oliy ta'lim muassasasining ilmiy-uslubiy anjumani va amaliyot ob'ektining ishlab chiqarish kengashida muhokama qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi va fakulitet ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga yakun yasaladi.

Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta'til vaqtida o'zi hisobidan qayta amaliyot o'tishga jo'natiladi.

Ayrim hollarda, bunday talabaning kelgusida oliy ta'lim muassasasida o'qishi mumkinligi masalasi rektor tomonidan ko'rib chiqiladi.